SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BOLBEKOVA UG‘ILOY JALOLIDDINOVNA

INGLIZ TILI YO‘NALISHI TALABALARINING OG‘ZAKI NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA “SHADOWING” TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 378.091.33:811.111-028.17

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Bolbekova Ug‘iloy Jaloliddinovna
Ingliz tili yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda “shadowing” ta’lim texnologiyasidan foydalanish 5

Болбекова Угилой Джалолиддиновна
Использование образовательной технологии «shadowing» в развитии устной речевой компетентции студентов направления английский язык 29

Bolbekova Ugiloy Jaloliddinovna
The use of shadowing educational technology in the development of oral speech competence of English language students..... 59

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 64

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUT

BOLBEKOVA UG‘ILOY JALOLIDDINOVNA

INGLIZ TILI YO‘NALISHI TALABALARINING OG‘ZAKI NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA “SHADOWING” TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6327 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdchti.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Normatova Nurjamol Normatovna** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Xashimova Dildora Urinbayevna** pedagogika fanlari doktori, professor
	Davronova Fotima Pirnazarovna pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “17” noyabr soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (66785-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____”. noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “____” noyabr dagi № 16 raqamli reyestr bayonnomasi).

U.U. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.E. Rustamova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

A.Y. Nurmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo amaliyotida ingliz tili yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda “Shadowing” ta’lim texnologiyasidan foydalanish, autentik audio-video materiallar asosida talaffuz, ravonlik, tinglab tushunish va kommunikativ ko‘nikmalarni takomillashtirish masalalari xorijiy tillarni o‘qitish metodikasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Biroq amaliyotda “Shadowing” texnologiyasini talabalarning individual til darajasi, o‘quv ehtiyojlari va nutqiy xususiyatlariga mos ravishda qo‘llashning metodik asoslari hamda uning og‘zaki nutq kompetensiyasiga ta’sirini kompleks baholash mexanizmlari yetarli darajada takomillashtirilmaganligi ta’lim samaradorligini cheklamoqda. Shu sababli ingliz tili yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda “Shadowing” ta’lim texnologiyasini qo‘llashning didaktik modeli, metodik ta’minoti va diagnostik-baholash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb amaliy vazifa hisoblanadi.

So‘nggi yillarda dunyo ilmiy amaliyotida ingliz tili yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini “Shadowing” ta’lim texnologiyasi asosida rivojlantirish, sun’iy intellekt vositalari, avtomatik nutqni aniqlash (Automatic Speech Recognition), autentik audio-video materiallar, mobil ta’lim ilovalari hamda raqamli til platformalarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda talaffuz aniqligi, nutq ravonligi (fluency), tinglab tushunish, prosodik ko‘nikmalar, kommunikativ kompetensiya hamda individual o‘quv trayektoriyalarini rivojlantirish ustuvor ilmiy yo‘nalishlar sifatida belgilanmoqda. Kelgusida generativ sun’iy intellekt asosida moslashuvchan (adaptiv) “Shadowing” tizimlarini yaratish, virtual va immersiv (VR/AR) muhitlarda og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish, o‘quv analitikasi (Learning Analytics) asosida individual nutq rivojlanishini monitoring qilish hamda “Shadowing” texnologiyasining uzoq muddatli samaradorligini baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb sanaladi.

O‘zbekistonda ingliz tili yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish, xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni, raqamli ta’lim vositalari, hamda sun’iy intellekt imkoniyatlarini o‘quv jarayoniga keng joriy etish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. “…Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya davri – sun’iy intellekt davriga dadil kirib bormoqda. Qaysi sohada bo‘lmasin, kim birinchi bo‘lib qat’iyat va izchillik ko‘rsatib, aniq natijalarga erishsa, o‘sha hammadan oldinda bo‘ladi”[1].Bu borada ingliz tili yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini “Shadowing” ta’lim texnologiyasi asosida rivojlantirish, autentik audio-video materiallar va sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqish hamda ularni ta’lim jarayoniga integratsiyalashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb sanaladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi, 2025-yil 21-oktabr.https://president.uz/uz/lists/view/8582

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tashkilotini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda til o‘qitish metodikasiga oid masalalarni o‘rganishga quyidagi olimlarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan: J.J.Jalolov, G.X.Bakiyeva, M.Djusupov, L.T.Axmedova, M.T.Iriskulov, D.U.Xashimova, I.M.Tuxtasinov, G.N.Irmuxamedova G.T.Maxkamova, U.U.Jumanazarov, A.E.Rustamova, A.Y.Nurmuratov[2] va boshqalar.

Ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirishga oid muammolarni T.K.Sattorov, G.I.Toirova, U.K.Nosirova, Z.V.Ashurova, N.N.Normatova, P.X.Omonov, J.A.Kenjabayev[3] kabi olimlarning tadqiqotlari qamrab olgan.

---

[2] Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. –T.: O‘qituvchi, 2012; Бакиева Г.Х. (2012). Узбекский язык для стран СНГ. Москва: МГЛУ. – 120 с; Джусупов М. (2009). Лингводидактика и методика в полинаучной системе языкового образования. Москва: Русский язык за рубежом. – 230 с; Ахмедова Л.Т. (2012). Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов филологов: дисс. док. пед. наук. Ташкент. – 320 с; Iriskulov M.T Tilshunoslikka kirish Darslik «Yoshlar matbuoti» Toshkent. 2009. 263 b; Xashimova D.U. Lingvodidakticheskie osnovi izucheniya lakun v kontekste sovremennogo funksionirovaniya russkogo yazika i mejyazikovoy vzaimodeystviy: dis.dok.ped.nauk. –T., 2007. – 209 s.; Tuxtasinov, I.M. (2018) “Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish” Toshkent. Ped. fan. dok diss. (DSc).–T., 2018. – 203 s.; Ирмухаммедова Г.Н. Лингводидактические основы обучения критическому чтению аутентичных текстов. (на старших курсах экономических вузов): дис.кан.пед.наук. –Т., 2008. –208 с.; Махкамова Г.Т. Идея прогрессивизма в обучении языку специальности: илмий-амалий конф. материал. –Т., 2009. –150 с.; Jumanazarov U.U. Ta’limni raqamlashtirish muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish ped. fan. dok. avtoreferati (DSc) . Jizzax-2021. 89 s.; A.E.Rustamova Oliy ta’lim muassasalarida chet tilini pedagogik diagnostika metodikasi orqali o‘qitishni takomillashtirish konsepsiyasi (ingliz tili misolida) ped. fan. dok. avtoreferati (DSc)-Toshkent-2025. 64 s.; A.Y.Nurmuratov Masofaviy ta’limda ingliz tilini o‘qitish metodikasi: ped. fan. fal. dok. (PhD) avtoref. – Toshkent, 2024. – 63 s.

[3]Sattorov T.K. (2003) Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi Avtoreferat ped.fan.fal dok.(PhD)- T- 2003.-51 b; Toirova G. I. Nutqiy muloqot situativ pragmatik sistema sifatida

Mustaqil hamdo‘stlik mamlakatlarida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish muammosi rus va xalqaro olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Jumladan, L.V.Shcherba, A.A.Leontyev, L.S.Vigotskiy, N.I.Jinkin, R.P.Milrud, E.I.Passov, I.L.Bim, V.V.Safonova, V.I.Andriyanova, N.N.Gladisheva[4] kabi olimlar tomonidan nutq faoliyati nazariyasi, kommunikativ yondashuv va til o‘qitish psixolingvistik asoslari ishlab chiqilgan. Mazkur tadqiqotchilar og‘zaki nutqning lingvistik va psixolingvistik xususiyatlarini, axborotni qabul qilish (auditiv jarayon) va uni qayta ishlash hamda uzatish (gapirish) bosqichlarini ilmiy jihatdan tahlil qilganlar.

Xorijiy mamlakatlarda shadowing texnologiyasidan foydalanish bo‘yicha loyihalar va ilmiy tadqiqotlar keng miqyosda amalga oshirilgan. Xususan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va AQShda “shadowing” texnologiyasini ingliz tilini o‘qitish jarayoniga tatbiq etish yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda mazkur texnologiyaning ayniqsa tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. “Shadowing” usulini ingliz tili metodikasida qo‘llagan tadqiqotchilar qatorida A.Arguelles, T.Murphey, P.Nation, J.Newton, K.M.Bailey, E.B.Emily, Y.Hamada, N.Takaki, S.Kadota, K.Matsumoto, Y.Obana, T.Nakanishi, N.Mochizuki, S.Lee, H.Luo [5] kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning

---

10.02.19 –Til nazariyasi avtoreferat Fil. fan(PhD). Toshkent – 2011; Nosirova U.K. Ingliz tilini o‘qitishda kasb-hunar kollejlari talabalari nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish: ped. fan. fal. dok. avtoreferati (PhD). –T., 2020.51-s.; Ashurova, Z. V. (2021). Ingliz tili o‘rganuvchilarning og‘zaki nutq qobiliyatini shakllantirish asoslari. Modern Paradigms of Progress in Science and Education, 158-161; Normatova N.N. Ingliz tilini o‘qitishda iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish avtoreferat Ped.fan.(PhD) dis. Samarqand – 2021; Omonov P.X.(2021) Ingliz tilini o‘qitishda talabalar ijtimoi-madaniy autentik videomateriallar vositasida rivojlantirish . Avtoreferat ped.fan.fal dok.(PhD)- T.2021.-54 b; Kenjabayev J.A. Jismoniy madaniyat ta'lim yo‘nalishi talabalari og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning lingvodidaktik xususiyatlari Ped.fan.(PhD) dis. Termiz – 2022.

[4]Шчерба А.Н. Преподование иностранных языков в средней школе // Общие вопросы методики. –М., 2003. – 160 с; Леонтьев А.А. (2007). Психолингвистические единицы и порождение речевого высказывания. Москва: URSS. – 306 с.; Леонтьев А.А. (2010). Язык, речь и речевая деятельность. Москва: Красанд. – 216 с.; Выготский Л.С. (2017). Мышление и речь. Москва: Мастера психологии СПб. – 432 с.; Жинкин Н.И. (1998). Язык-речь-творчество: Исследования по семантике, психолингвистике, поэтике. Москва. – 364 с.; Мильруд Р.П. Определение понятия и сущности обучения английскому языку в специальных целях. Электронный ресурс: https://www.iyazyki.prosv.ru (дата обращения: 11.01.2019); Пассов Е.И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1989. – 277 с. ; Пассов Е.И. Методология методики: теория и опыт применения: Метод. школа Пассова. – М., 2004. – 228 с.; Сафонова В.В. Социокультурный подход к обучению иностранным языкам. – М.: Высшая школа, Амскорт Интернэйшнл, 2001. – 311 с.; Бим И.Л., Леонтьев А.А. (1991). Общая методика обучения иностранным языкам. Москва: Русский язык. – 215 с.; Андриянова В.И. Теория и практика обучения узбекских школьников устноречевому общению на русском языке: дисс.док.пед.наук. –Т., 1997. – 350 с.; Гладышева Н.Н. (2009). Методика формирования грамматических навыков говорения на начальной ступени языкового вуза (на материале английского): дисс. канд. пед. наук. Москва. – 251 с.

[5]Arguelles, A. (2006). Shadowing: A method for languageacquisition.https://web.archive.org/web/201; Murphey, T. (2001). “Exploring conversational shadowing”. Language Teaching Research, 5(2), 128-155.; Nation, P., & Newton, J. (2009). Teaching ESL/EFL Listening and Speaking. Routledge; Bailey, K.M. Practical English Language Teaching: Speaking. –New York: McGraw.Hill, 2005. –257 p.; Goh, C. Teaching speaking in the language classroom. –Singapore: SEAMEO Regional Language Centre, 2007. –P. 46-47; Emily, E.B. Examination of Task-Based Language Learning Methods on High School Students’ Oral Proficiency in French as a Foreign Language: abstract of doct.disser. –Northern Illinois University, Illinois, 2018. –99 p.; Hamada, Y. (2011). “Improvement of listening comprehension skills through shadowing with difficult materials”. The Journal of Asia TEFL, 8(1), 139-162.; Hamada, Y., & Takaki, N. (2020). “The effectiveness of shadowing and tracking training on the improvement of Japanese EFL learners' prosody and listening skills”. Language Teaching Research, 24(5), 678-699.; Kadota, S. (2019). Shadowing as a Method of Second Language Acquisition: Connecting Input, Processing,

tadqiqotlarida “shadowing” texnologiyasining audiolingvistik jarayonlarni faollashtirish, talaffuzni takomillashtirish, nutqiy avtomatizmni shakllantirish hamda kommunikativ erkinlikni oshirishdagi o‘rni batafsil tahlil qilingan. Shu jihatdan, shadowing usuli xorijiy til ta’limida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Xorij mamlakatlarida, xususan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va AQShda “shadowing” texnikasidan foydalanish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar va amaliy loyihalar amalga oshirilgan. Mazkur izlanishlarda “shadowing” usulining tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘qitish jarayonida “shadowing” texnologiyasi asosida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish masalasi yetarli darajada mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Mazkur dissertatsiya aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilib, ingliz tili yo‘nalishi talabalari og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda “shadowing” ta’lim texnologiyasining samaradorligini nazariy jihatdan asoslash va uni amaliyotga tatbiq etishni maqsad qilib qo‘yadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy ishlari rejalariga muvofiq “Filologik oliy ta’lim tashkilotlarida chet tilini integrallashuv orqali o‘qitishda kadrlar tayyorlashning filologik hamda metodik asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “shadowing” ta’lim texnologiyasidan samarali foydalanish orqali ingliz tili yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining lingvodidaktik hamda psixolingvistik asoslarini o‘rganish;

“shadowing” ta’lim texnologiyasidan samarali foydalanish orqali ingliz tili yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish;

ingliz tili yo‘nalishi talabalarida og‘zaki muloqot qilish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlab, masofaviy texnik vositalar asosida ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar berish;

“shadowing” ta’lim texnologiyasi asosida zamonaviy ijtimoy tarmoq vositalaridan foydalangan holda, talabalar og‘zaki nutqini rivojlantirishga mo‘ljallangan mashq va topshiriqlarni ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash;

talabalarning umumiy savodxonligi, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham uzviy rivojlantirish yuzasidan tajriba sinov ishlarini o‘tkazish hamda olingan natijalarni samaradorlik yuzasidan matematik-statistik tahlil qilish.

---

and Output. Routledge.; Mochizuki, N. (2006). “Effects of shadowing on listening comprehension and vocabulary learning: A study of Japanese EFL learners”. JACET Bulletin, 42, 47-57.; Marzuki, E. (2019). “Shadowing technique in improving students' listening and speaking skills”. Journal of English Language Teaching and Linguistics, 4(1), 59-69.; Matsumoto, K., & Obana, Y. (2001). “The effectiveness of shadowing and dictation: Their implications for training Japanese interpreters”. Interpreting, 6(1), 1-23.; Lee, S. Y. (2013). “The effectiveness of shadowing on students' pronunciation in an EFL context”. Taiwan Journal of TESOL, 10(1), 85-100.; Luo, H. (2016). “The effectiveness of shadowing on the acquisition of Mandarin Chinese prosody: An experimental study”. Chinese as a Second Language Research, 5(1), 89-114.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz tili yo‘nalishi birinchi va ikkinchi bosqich talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini “shadowing” ta’lim texnologiyasi asosida ingliz tili yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish shakli, hamda ta’lim metodlari, usul va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (analitik-sintetik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so‘rovnomalar, testlar, kuzatish), prognostik (ekspert bahosi, baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik statistika (ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tarzda taqdim etish va boshqalar) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

„Shadowing“ texnologiyasining lingvodidaktik-psixolingvistik mexanizmi *„fonologik persepsiya → kognitiv kodlash → artikulyatsion reproduksiya → prosodik avtomatlashtirish → refleksiv korreksiya“* ketma-ketligida samaradorlikni ta’minlashi asoslangan;

o‘quv materiallarining *leksik-grammatik* va *prosodik murakkablik darajasi*, mashqlarning *ketma-ketligi*, takrorlash *jadalligi* va *teskari aloqani* talabalarning individual o‘zlashtirish darajasi asosida bosqichma-bosqich moslashtirishga asoslangan adaptiv metodika *parametrik-moslashuvchan* tarzda takomillashtirilgan;

og‘zaki nutqdagi fonetik, prosodik va kommunikativ xatolarni kompleks diagnostika qilish, rivojlanish dinamikasini uzluksiz monitoring va mezonli baholash asosida boshqarishni ta’minlovchi elektron o‘quv-metodik ta’minot *sun’iy intellektga asoslangan avtomatik tahlil va individual profillashtirish funksiyalarini o‘zida mujassam etgan* modulli-avtomatlashtirilgan tizim sifatida ishlab chiqilgan;

zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar vositasida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan, motivatsion-faollashtirish, imitativ-reproduktiv, kommunikativ-transformatsion va refleksiv-baholash bosqichlaridan iborat to‘rt bosqichli didaktik tizim ishlab chiqilib, talabalarning *nutqiy faolligini tabiiy muloqot sharoitida rivojlantiruvchi* ijtimoiy-interaktiv platforma sifatida samaradorligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“shadowing” texnologiyasini qo‘llash orqali og‘zaki nutqqa xos qiyinchiliklarni bartaraf etishga mo‘ljallangan didaktik va videoli mashqlar tizimi bo‘yicha “Shadowing Practice with AI Platform” nomli elektron darslik nashr qilingan;

talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida “shadowing” ta’lim texnologiyasidan foydalangan holda “English” nomli o‘quv qo‘llanma nashr qilingan;

talabalarning monologik va dialogik nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun shadowing texnologiyasiga asoslangan mashqlar tizimi asosida “Economical knowledge” uslubiy qo‘llanma nashr qilingan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan nazariy ma’lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olingani, keltirilgan tahlil va mulohazalar,

tajriba-sinov ishlari samaradorligini matematik statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani hamda olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati “Shadowing” ta’lim texnologiyasi asosida ingliz tili yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari takomillashtirilgani, uning tinglab tushunish, talaffuz, nutq ravonligi va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslangani hamda og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy metodik modeli ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan “Shadowing” texnologiyasiga asoslangan o‘quv-metodik ta’minot, amaliy mashqlar tizimi, metodik tavsiyalar va diagnostik baholash vositalarini ingliz tili mashg‘ulotlariga joriy etish orqali talabalarning talaffuzi, nutq ravonligi, tinglab tushunish va og‘zaki muloqot kompetensiyasini rivojlantirish hamda bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Olingan ilmiy natijalar ingliz tili yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda “shadowing” ta’lim texnologiyasidan foydalanish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda amaliyotga joriy etildi:

„Shadowing“ texnologiyasining lingvodidaktik-psixolingvistik mexanizmi *„fonologik persepsiya → kognitiv kodlash → artikulyatsion reproduksiya → prosodik avtomatlashtirish → refleksiv korreksiya“* ketma-ketligida samaradorlikni ta’minlashi asoslanganligi haqidagi xulosalardan 2025-2026 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti va Yevropa ittifoqining Erasmus + KA171 doirasida 2025-2026 yillarda bajarilgan “Exchange Programme for International Mobility with Koszalin University of Technology” nomli xalqaro loyihada tadbiq etilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2026-yil 6-maydagi 04/11-11556-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha ishtirokchilari “shadowing” texnologiyasini interaktiv va jonli yondashuv asosida muvaffaqiyatli qo‘llash orqali nafaqat xatosiz talaffuz qilish, balki og‘zaki nutqning boshqa komponentlari, jumladan, nutq tezligi, ravon gapirish va intonatsiyani rivojlantirishga erishilgan;

o‘quv materiallarining *leksik-grammatik* va *prosodik murakkablik darajasi*, mashqlarning *ketma-ketligi*, takrorlash *jadalligi* va *teskari aloqani* talabalarning individual o‘zlashtirish darajasi asosida bosqichma-bosqich moslashtirishga asoslangan adaptiv metodika *parametrik-moslashuvchan* tarzda takomillashtirilganligi haqidagi ilmiy natijalar asosida amalda mashq qilish namunalari SUZ-800-21GR- 3181 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida amalga oshirilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 9-iyuldagi 04/3158-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha ishtirokchilari, professor-o‘qituvchilar va talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasini amalda mashq qilish, yangi so‘zlarni eslab qolish va grammatik bilimlarini boyitishga xizmat qilgan;

og‘zaki nutqdagi fonetik, prosodik va kommunikativ xatolarni kompleks diagnostika qilish, rivojlanish dinamikasini uzluksiz monitoring va mezonli

baholash asosida boshqarishni ta’minlovchi elektron o‘quv-metodik ta’minot *sun’iy intellektga asoslangan avtomatik tahlil va individual profillashtirish funksiyalarini o‘zida mujassam etgan* modulli-avtomatlashtirilgan tizim sifatida ishlab chiqilganligi haqidagi xulosalar va ishlab chiqilgan amaliy mashqlardan “ENGLISH” nomli o‘quv qo‘llanma nashr etilgan va amaliyotga joriy etilgan (Samarqand iqtisod va servis institutining 2024-yil 27-noyabrdagi 4-son ma’lumotnomasi). Natijada, “shadowing” ta’lim texnologiyasining kategoriyalash strategiyalari asosida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus video mashqlar va topshiriqlar tizimi ishlab chiqilib, ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligi ta’minlangan;

zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar vositasida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan, motivatsion-faollashtirish, imitativ-reproduktiv, kommunikativ-transformatsion va refleksiv-baholash bosqichlaridan iborat to‘rt bosqichli didaktik tizim ishlab chiqilib, talabalarning *nutqiy faolligini tabiiy muloqot sharoitida rivojlantiruvchi* ijtimoiy-interaktiv platforma sifatida samaradorligi asoslanganligi haqidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi tomonidan “O‘zbekiston” teleradiokanalida efirga uzatilgan “Ta’lim va taraqqiyot” hamda “O‘zbekiston yoshlari” nomli dasturlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 21-iyuldagi 05-09-1198-son ma’lumotnomasi). Natijada, teleradioeshittiruv mazmuni talabaga yo‘naltirilgan, “shadowing” asosida tinglab tushunish va nutqni takrorlash jarayonlarini birgalikda tashkil etish imkoniyati yaratildi hamda ushbu yondashuvni interaktiv usullar bilan qo‘llash orqali til o‘rganish samaradorligi oshib, talabalarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati keng jamoatchilikka tushunarli tarzda targ‘ib qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 26 ta ilmiy ish nashr etildi, jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta uslubiy qo‘llanma va 1 ta elektron darslik, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tasarrufidagi ilmiy jurnallarda 15 ta ilmiy maqola, shundan 10 tasi respublika, 5 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda, 1 ta “SCOPUS” ma’lumotlar bazasidagi ilmiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilmasi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 156 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan hamda tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan. Shuningdek, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarining qisqa mazmuni bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning “**Oliy ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutqi kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslar**i” nomli birinchi bobida ingliz tilidagi og‘zaki nutqni rivojlantirish jarayonining lingvodidaktik va psixolingvistik asoslari va bakalavr bosqichidagi talabalarning gapirish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini uzviy rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Lingvodidaktika chet tillarni o‘rgatish va o‘qitish jarayonini ilmiy asoslashga qaratilgan maxsus sohadir. Ushbu fan lingvistika, pedagogika va psixologiyaning kesishgan nuqtasida shakllangan bo‘lib, uning asosiy vazifasi chet tilini o‘rgatishning samarali usullari va texnologiyalarini ishlab chiqishdan iborat. Lingvodidaktikaning nazariyasi va amaliyoti, ayniqsa, muloqotga yo‘naltirilgan ta’limning dolzarb masalalarini hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘nalish talabalarda chet tilida samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Chet tilini o‘qitishda psixolingvistik tamoyillar talabalarning nutqiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Psixolingvistika nutq faoliyati faqatgina lingvistik qobiliyatga emas, balki emotsional va motivatsion omillarga ham bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Talabalarning qiziqishi va faolligini oshirish uchun o‘yinlar, bahs-munozaralar, rolli o‘yinlar va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ijobiy psixologik muhit yaratish til o‘rganish jarayonini samaraliroq qiladi. Ta’lim jarayonida talabalar og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib, u lingvodidaktik va psixolingvistik tamoyillar bilan bevosita bog‘liqdir. Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish shaxsning kasbiy va kommunikativ tayyorgarligini shakllantirishga xizmat qiladi. Tilni samarali o‘rganish jarayonida zamonaviy ta’lim metodlari, interfaol yondashuvlar, autentik materiallardan foydalanish va real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish muhim o‘rin tutadi. Og‘zaki nutq kompetensiyasining rivojlanishiga lingvodidaktik yondashuvlarning ta’siri katta bo‘lib, til o‘rganish jarayonida kommunikativ metodlarga asoslangan ta’lim jarayoni samaradorlikni oshiradi. O‘z navbatida, psixolingvistik tamoyillar ham chet tilini o‘zlashtirishda shaxsning nutqiy va kognitiv qobiliyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Til o‘rganish jarayoni nafaqat lingvistik bilimlarni o‘zlashtirish, balki shaxsning idrok, xotira va tezkor fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasida chet tilini o‘qitishning asosiy maqsadi – o‘rganuvchilarning kundalik, ilmiy va kasbiy faoliyatda chet tilida samarali muloqot qila olishlari uchun chet tili kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, til o‘qitish jarayonida nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, talabalarning nutqiy kompetensiyasini real hayotiy vaziyatlarga mos ravishda shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chet tilini o‘qitish jarayonida tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha turli xil usullar qo‘llaniladi. Lingvistik yondashuvlardan biri bo‘lgan segmentatsiya usuli tinglash materiallarini bosqichma-bosqich, ya’ni alohida so‘zlar va iboralar shaklida taqdim etib, keyinchalik ularni murakkab gaplar va matnlar bilan bog‘lashni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, minimal juftliklar bilan ishlash ham samarali metodlardan biri hisoblanadi, chunki bu usul orqali

talabalar tovushlarning farqiga e’tibor qaratib, talaffuzni aniqroq tushuna boshlaydilar. Ayniqsa, filologiya yo‘nalishidagi talabalar uchun lingvistik bilimlarni mustahkamlash, turli kommunikativ vaziyatlarda erkin muloqot qila olish, chet tilidagi matnlarni chuqur tahlil qilish va kasbiy faoliyatda til resurslaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish talab etiladi. Shu maqsadda, interaktiv yondashuvlar, autentik materiallar va lingvodidaktik metodlardan foydalangan holda, og‘zaki nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni kengaytirish zarur. Bundan tashqari, CEFR tizimi asosida talabalar nutqiy malakalarini baholash tamoyillari ko‘rib chiqilib, xalqaro baholash tizimlarining o‘rni tahlil qilindi. CEFR standartlariga mos ravishda til o‘rganish jarayoni bosqichma-bosqich tashkil qilinishi va har bir daraja uchun o‘ziga xos metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi lozimligi ta’kidlandi. Natijada, og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish uzviy va tizimli yondashuv asosida olib borilishi, bunda nazariya va amaliyot uyg‘unligi, kommunikativ va interfaol metodlarning qo‘llanilishi, baholash tizimining to‘g‘ri tashkil etilishi zarurligi aniqlandi. Shuningdek, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish muhim rol o‘ynashi asoslab berildi.

Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarni chet tilida kasbiy tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Chet tili, geografik yoki madaniy chegara mavjudligiga qaramay, bilim olish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish vositasi sifatida muhim o‘rin tutadi. Bo‘lajak mutaxassislarning chet tilini yuqori darajada o‘zlashtirishi xalqaro miqyosda professional faoliyat yuritish, ilmiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirish hamda shaxslararo kommunikatsiyani samarali amalga oshirish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Chet tilini o‘qitish jarayonidagi asosiy maqsadlardan biri – mutaxassislarning nutqiy qobiliyatlari va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Kommunikativ kompetensiya shaxslararo va madaniyatlararo muloqot qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu ko‘nikmalar bo‘lajak mutaxassisning global miqyosda kasbiy faoliyat yuritishga tayyorligini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, filologik yo‘nalish talabalari uchun og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ISCED – Ta’limning Xalqaro Standartlashgan Tasnifi bo‘yicha ushbu bosqichda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiyaning “**Bo‘lajak mutaxassis talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shadowing ta’lim texnologiyasi yordamida rivojlantirish**” nomli ikkinchi bobida ingliz tilini o‘qitishda og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining amaldagi holat tahlili va ingliz tilini o‘qitishda “Shadowing” ta’lim texnologiyasi yordamida gapirish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati hamda shadowing ta’lim texnologiyasiga oid mashqlar tizimi ishlab chiqilgan.

Oliy ta’lim tashkilotlarida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga ajratilgan o‘quv soatlari ham bu yo‘nalishga alohida e’tibor berilayotganini ko‘rsatadi. Masalan, Qarshi davlat universiteti Xorijiy tillar fakultetining 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalishida “Og‘zaki nutq amaliyoti” faniga 180 soat amaliy mashg‘ulot va 180 soat mustaqil ta’lim ajratilgan. Sharof

Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Filologiya fakultetining ayni yo‘nalishida ushbu fan uchun 180 soat amaliy mashg‘ulot hamda 210 soat mustaqil ta’lim belgilangan. Samarqand davlat chet tillar institutining Ingliz tili fakultetida 50110900 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi bo‘yicha “Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi” faniga 108 soat amaliy mashg‘ulot va 132 soat mustaqil ta’lim ajratilgan. Shuningdek, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz filologiyasi fakultetining 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalishida “Og‘zaki nutq amaliyoti” faniga 144 soat amaliy mashg‘ulot va 216 soat mustaqil ta’lim belgilangan. Mazkur ko‘rsatkichlar oliy ta’lim tizimida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotganini hamda talabalarni real kommunikativ muhitda samarali muloqot qila oladigan mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim tashkilotlarida ko‘pincha o‘qish va yozish ko‘nikmalariga ustuvor ahamiyat berilishi kuzatiladi. Bunday yondashuv esa talabalarning og‘zaki muloqot qobiliyatlarini to‘liq rivojlantirishga ma’lum darajada to‘sqinlik qiladi. Natijada talabalar grammatik qoidalarga amal qilgan holda nutq tuzishda hamda talaffuzni mukammallashtirishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar.

Bueno, Madrid va Mclaren ta’kidlashicha: “Gapirish til o‘rganuvchilar duch keladigan eng qiyin ko‘nikmalardan biridir”. Hozirgi kunda xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida “shadowing” ta’lim texnologiyasi muhim o‘rin tutadi. Ushbu texnologiya talabalarni tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirishga imkon beradi. “Shadowing” ta’lim texnologiyasi orqali talabalar o‘zlashtirilgan til materiallarini real va muloqotga yaqin vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu texnologiya talabalarning talaffuz, intonatsiya va ritm kabi fonetik xususiyatlarini takomillashtirish bilan birga, ularning og‘zaki nutqni avtomatizatsiya qilishiga yordam beradi. “Shadowing” ta’lim texnologiyasi bo‘yicha olib borilgan xorijiy tadqiqotlarda uning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, T.Murphey shadowing o‘quvchilarning nutqqa bo‘lgan ishonchini oshirishini, Y.Hamada esa uning tinglab tushunish va talaffuzga ijobiy ta’sirini ta’kidlaydi. Shuningdek, S. Kadota va Tamai tadqiqotlarida shadowing nutq sur’ati, aniqligi hamda talaffuzni yaxshilashi qayd etilgan. Bundan tashqari, Foote & Trofimovich ushbu texnologiya fonetik nutqni chuqurlashtirishga xizmat qilishini ilmiy asosda ko‘rsatib bergan.

Shadowing ta’lim texnologiyasi haqida metodist olim J. Jalolov o‘z maqolasida qisqacha aytib o‘tilgan, lekin “shadowing” ta’lim texnologiyasi haqida mamlakatimizda yetarlicha izlanishlar olib borilmagan. “Shadowing” ta’lim texnologiyasi Yaponiya, Koreya, Xitoy va Amerika Qo‘shma Shtatlarida tadqiqoqchilar va olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Tim Murphey tadqiqotida ikkita yapon til o‘rganuvchi va ikkita ona til sohibi ingliz tili ishtirok etgan. Ular suhbatda bir-birlarini “shadowing” qilish bo‘yicha ko‘rsatma olgan. Hamada yapon universitetlaridagi talabalardan tajriba o‘tkazib, “shadowing” tinglovchini bir vaqtning o‘zida nutqni kuzatish va ovoz chiqarib takrorlashga majbur qiladigan faol va yuqori darajada kognitiv texnika sifatida tasvirlanadi. Ushbu jarayon tinglab tushunish va talaffuz ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. S. Kadota yapon ta’lim muhiti asosida “shadowing” usulida ingliz va yapon tillarini

ikkinchi til sifatida o‘rganayotgan talabalar bilan keng qo‘llanilgan va o‘rganilgan. Tamai tadqiqotida “shadowing” o‘rganuvchilarga passiv tinglashdan faol nutqni qayta ishlab chiqarishga o‘tishda qanday yordam berishini ko‘rsatadi. Foote & Trofimovich tadqiqotni universitetda ikkinchi til o‘rganuvchilari bilan fonetika yoki talaffuzni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar doirasida olib borilgan. Mazkur tadqiqot xorijiy tadqiqotlardan farqi talabaning motivatsiya va mantiqiy fikrlashini rivojlantirib, erkin suhbat qila olish bilan birga xorijiy mamlakatlarning madaniyatini ham o‘rganishdir. Hamda “shadowing” ta’lim texnologiyasini mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarida talabalar mustaqil holda qo‘llab, berilgan mavzularni mustahkamlay oladi (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Shadowing ta’lim texnologiyasiga asoslangan ingliz tili dasturlari

Dastur nomi	Davlat	Tavsif
EnglishCentral	Global (onlayn)	Video asosida shadowing mashqlari, real-time talaffuz baholash
FluentU	AQSh	Shadowingga mos video/audio platforma, kontekstual lug‘at
Speak Up London	Buyuk Britaniya	Shadowing texnikasiga asoslangan speaking darslari
JET Program	Yaponiya	O‘qituvchilar o‘quvchilar bilan shadowing texnikasini qo‘llaydi
TubeShad- English Shadowing	Vetnam	YouTube videolarini import qilib, ularni shadowing usulida ishlashga mo‘ljallangan ilova. O‘z ovozingizni yozib, asl gapirish bilan solishtirish, tezlikni o‘zlashtirish va qayta ijro qilish mumkin.
ShadowEng	Janubiy Koreya	YouTubedagi ixtiyoriy videolarni import qilib, dictation (eslab yozish) va takrorlash mashqlari bilan shug‘ullanishingiz mumkin.

Ushbu jadvalda “shadowing” ta’lim texnologiyasiga asoslangan ingliz tili dasturlari yoritib berilgan. “Shadowing” ta’lim texnologiyasi bo‘yicha Yaponiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Vetnam davlatlarida mazkur dasturlar amalga oshirilgan. Bu dastur platformalar ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun juda qulay hisoblanadi. “EnglishCentral” video asosidagi mashqlar orqali foydalanuvchining talaffuzini real vaqt rejimida baholaydi. “FluentU” esa autentik video va audiolar yordamida “shadowing”ni kontekstual lug‘at bilan uyg‘unlashtiradi. “Speak Up London” dasturida “shadowing” texnikasi jonli speaking mashg‘ulotlarida qo‘llanadi. JET Program Yaponiyada o‘qituvchilar tomonidan “shadowing”ni dars jarayonida amaliy qo‘llash bilan ajralib turadi. “TubeShad” ilovasi “YouTube” videolaridan foydalanib, talaffuz va nutq tezligini solishtirish imkonini beradi. “ShadowEng” esa dictation va takrorlash mashqlari orqali eshitish va gapirish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Umuman olganda, ushbu dasturlar “shadowing” ta’lim texnologiyasi orqali ingliz tilini samarali o‘rganishga xizmat qiladi.


Zamonaviy xorijiy til o‘qitish jarayonida talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish muhim didaktik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tili yo‘nalishi talabalari uchun talaffuz, nutq ravonligi, intonatsiya, urg‘u va eshitib tushunish ko‘nikmalarining integratsiyalashgan holda rivojlanishi kasbiy tayyorgarlikning asosiy mezonlaridan sanaladi. Biz tadqiqotimiz davomida “Bo‘lajak mutaxassis talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda shadowing ta’lim texnologiyasidan foydalanish modeli” ni yaratdik. Ushbu modelda o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi beshta asosiy komponent, asosiy tamoiyillar, o‘qitish vositalari hamda nazorat va baholash bo‘limlarni o‘z ichiga oladi.

Kirish kompetentida diagnostika jarayoni talabalarning mavjud bilim, koʻnikma va malakalarini aniqlash, ularning kuchli va zaif tomonlarini belgilash hamda keyingi pedagogik ta’sir choralarini rejalashtirish imkonini beradi. Diagnostika jarayonida ogʻzaki suhbat, monologik nutq, dialogik vaziyatlar, audio material asosida qayta hikoyalash va test topshiriqlaridan foydalanildi. Olingan natijalar talabalarning ogʻzaki nutq kompetensiyasi darajasi asosan oʻrta va past bosqichda ekanligini, ayniqsa talaffuz, nutq ravonligi va spontan gapirishda muammolar mavjudligini koʻrsatdi. Tadqiqot doirasida oliy ta’lim tashkilotlarida ingliz tili yoʻnalishi boʻyicha amaldagi oʻquv dasturlari va fan sillabuslari tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni koʻrsatdiki, dasturlarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan boʻlsa-da, lekin, tinglab tushunish va gapirish koʻnikmalarining integratsiyasi cheklangan, fonetik mashqlar koʻproq nazariy yoʻsinda berilgan, innovatsion texnologiyalar, jumladan “shadowing” usulidan foydalanish mexanizmlari aniq koʻrsatib berilmagan. Mazkur kamchiliklar talabalarning real nutq muhitiga moslashishiga toʻsqinlik qilmoqda. Shu bois, “shadowing” texnologiyasini oʻquv dasturlariga integratsiya qilish, uni fan sillabusining amaliy qismiga tizimli ravishda kiritish dolzarb masala sifatida belgilandi.

“Shadowing” ta’lim texnologiyasining jarayon bosqichlarida tayyorgarlik, kuzatish va mustahkamlash jarayonlari amalga oshiriladi: Tayyorlov bosqichida talabalar audio yoki video material mavzusi bilan tanishtiriladi, asosiy leksik birliklar va fonetik qiyinchiliklar aniqlanadi. Material sekin sur’atda tinglatilib, umumiy mazmun tushuntiriladi. Asosiy (shadowing) bosqichida talabalar audio materialni tinglash jarayonida nutqni deyarli bir vaqtda takrorlaydi. Dastlab qisqa segmentlar, keyinchalik esa toʻliq matn bilan ishlanadi. Ushbu bosqich talaffuz, intonatsiya va nutq ravonligini avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Mustahkamlash va refleksiya bosqichida talabalar eshitilgan material asosida mustaqil monolog yoki dialog tuzadi, nutqiy faoliyat tahlil qilinadi, oʻz-oʻzini baholash va oʻqituvchi tomonidan teskari aloqa (feedback) amalga oshiriladi. Ogʻzaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida “shadowing” ta’lim texnologiyasi yordamida talabalarning gapirish va tinglab tushunish koʻnikmalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish, talaffuz va aksentni rivojlantirib holda spontan muloqot qilish, mantiqiy va tanqidiy fikrlashlari samarali rivojlangan.


Zamonaviy masofaviy vositalar yordamida qoʻllash qismida raqamli ta’lim sharoitida shadowing texnologiyasidan masofaviy vositalar orqali foydalanish keng imkoniyatlar yaratadi. Masofaviy ta’lim jarayonida quyidagi platforma va vositalardan samarali foydalanish mumkin. Masofaviy ta’lim sharoitida “shadowing” texnologiyasi talabalarning mustaqil ishlash koʻnikmalarini rivojlantiradi va ogʻzaki nutq kompetensiyasini shakllantirishda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Chiqish kompetentida ya’ni natijada mazkur texnologiyani an’anaviy va masofaviy ta’lim vositalari bilan uygʻunlashtirish oʻquv jarayonining sifat va samaradorligini oshirib, mutaxassis talabalarning gapirish va tinglab tushunish koʻnikmalarini “shadowing” ta’lim texnologiyasining uch bosqichidan foydalanib, B2 darajadan C1 darajaga oshirish uchun muhim ta’lim texnologiyasi sifatida qoʻllaniladi (1-rasmga qarang):




1-rasm. Bo‘lajak mutaxassis talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda “shadowing” ta’lim texnologiyasidan foydalanish modeli

So‘nggi yillarda “shadowing” ta’lim texnologiyasi – ya’ni tinglab darhol takrorlash metodi xorijiy tillarni o‘rganishda samaradorligi bilan ajralib turmoqda (2-rasmga qarang):



2-rasm. “Shadowing” ta’lim texnologiyasini masofaviy vositalar (Telegram, Instagram, TikTok, Facebook) orqali joriy etishda talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish strategiyalari

Bu usulni masofaviy vositalar (Telegram, Instagram, TikTok, Facebook) orqali joriy etish orqali talabalarning nutq ko‘nikmalarini oshirish mumkin. Zamonaviy talabalar Instagram, Telegram, TikTok kabi platformalarda faol. Bu muhitda shadowing topshiriqlarni samarali berish mumkin. Instagramda video “shadowing”, story challenge nomli reels, storieslar joylab boriladi. Telegramda guruhlar va kanallarda audio topshiriqlar, ovozli javoblar olib boriladi. TikTok platformasida “duet” shadowing, so‘zlashuv trenajyorlari tashkil qilish mumkin. Facebookda guruhli muhokamalar, interaktiv topshiriqlar tashkil qilinadi. “Shadowing” ta’lim texnologiyasi B2 darajali talabalar uchun masofaviy ta’limda til o‘rganishning samarali usulidir. Bu usul talaffuzni yaxshilash, grammatika va leksikani rivojlantirish, tinglash va muloqot ko‘nikmalarini oshirish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. Masofaviy ta’limda “shadowing” texnologiyasidan foydalanish talabalarni yanada mustahkam o‘rganishga, o‘z til ko‘nikmalarini real vaziyatlarda ishlatishga tayyorlaydi. “Shadowing” texnologiyasi asosida ijtimoiy tarmoq namunalaridan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi (3-rasmga qarang):



3-rasm. “Shadowing” ta’lim texnologiyasi asosida ijtimoiy tarmoq namunalaridan foydalanish natijalari

“Shadowing” ta’lim texnologiyasi asosida ijtimoiy tarmoq namunalaridan foydalanish talabalarning tinglab tushunish va talaffuz ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi, og‘zaki nutqi tabiiylashtiradi va motivatsiya oshiradi. Autentik materiallar orqali nutqning intonatsiyasi va ravonligi yaxshilanadi. Shuningdek, zamonaviy leksika o‘zlashtiriladi va talabalarning spontan va mantiqiy javob berishini rivojlantiradi. Ijtimoiy tarmoqlar asosida bajarilgan “shadowing” mashqlari talaffuz va intonatsiyani tabiiy muhitga yaqinlashtirdi. “Shadowing” jarayoni e’tibor va xotirani faollashtirib, tinglashda diqqatni jamlashni kuchaytirdi. Talabalarda mustaqil ishlash va o‘z nutqini tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantiradi. Ijtimoiy tarmoq namunalari orqali madaniy va ijtimoiy kontekstni tushunish ham rivojlanadi. Eng muhimi, talabalarning ingliz tilida gapirishga bo‘lgan ishonchi ortdi. Umuman olganda, “shadowing” ta’lim texnologiyasi va ijtimoiy tarmoq materiallari uyg‘unligi yuqori pedagogik samaradorlikni ta’minladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish**” deb nomlangan bo‘lib, bu ilmiy tadqiqotimizda ilgari surilgan ilmiy-nazariy qarashlarimizni amaliyotga yillarida tadqiqot ishi mavzusi doirasida maxsus tajriba-sinov ishlari olib borilgan. Eksperimental ta’lim ishlari oliy o‘quv yurtlari ingliz ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqilgan mashq va topshiriqlar tizimini tajriba-sinov ishlaridan o‘tkazishga qaratildi. Eksperimental ta’limning maqsadi taklif etilgan mashq va vazifalar tizimining samaradorligi va ular yordamida talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda erishilgan natijalarni aniqlashdan iboratdir. Tadqiqot ishi maqsadidan kelib chiqqan holda

tajriba-sinov ishlari O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti, Qarshi davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti va Samarqand davlat chet tillar institutida quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi. So‘rovnomalarda oliy o‘quv yurtlari ingliz tili ta’lim yo‘nalishida dars beruvchi 67 nafar professor-o‘qituvchilar hamda tajriba-sinov ishlarida 440 nafar talabalar (tajriba guruhlaridan-220 ta, nazorat guruhlarda-220 ta) ishtirok etishdi. Quyida ingliz tili yo‘nalishi talabalarning gapirish nutq faoliyatini egallash darajasinining dastlabki nazorat ishi tahlil natijalarini jadval shaklida ko‘rib chiqishimiz mumkin (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Gapirish ko‘nikmalarini egallash darajasini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan dastlabki nazorat ishlarining natijalari

№	Mezonlar	Guruh	Soni	Rivojlanganlik darajasi							
				5		4		3		2	
				N	%	n	%	n	%	n	%
1	Asosiy mazmunni tushuntirish	Tajriba	220	70	31,8	100	45,5	38	17,3	12	5,5
		Nazorat	220	73	33,2	98	44,5	40	18,2	9	4,1
2	Umumiy mazmunni tushuntirish	Tajriba	220	70	31,8	95	43,2	42	19,1	13	5,9
		Nazorat	220	72	32,7	96	43,6	41	18,6	11	5,0
3	Xabardagi ayrim detallarni aniqlay olish	Tajriba	220	68	30,9	102	46,4	42	19,1	8	3,6
		Nazorat	220	73	33,2	100	45,5	38	17,3	9	4,1
4	Qo‘shimcha tafsilotlarni aniqlay olish	Tajriba	220	64	29,1	99	45,0	46	20,9	11	5,0
		Nazorat	220	74	33,6	98	44,5	41	18,6	7	3,2
O‘rtacha ko‘rsatkich		**Tajriba**	**220**	**68**	**30,9**	**99**	**45,0**	**42**	**19,1**	**11**	**5,0**
		Nazorat	**220**	**73**	**33,2**	**98**	**44,5**	**40**	**18,2**	**9**	**4,1**

Mazkur tahlil natijalarida, talabalarning gapirish nutq faoliyatida quyidagi jihatlarni ko‘rishimiz mumkin: tajriba va sinov guruhlarining har ikkisida ham talabalarning og‘zaki bayonotlari qisqa va soddaligi, yozma nutqqa nisbatan og‘zaki nutqda ko‘proq xatoliklar qilishini, fikrni ifodalashda, gap tuzishda mantiqiy uzviylik va gap qurilishida izchilliknining yetarli emasligi, shuningdek o‘zbek tilidagi fikrlarni ingliz tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilishda leksik interferension xatoliklar, so‘z va iboralarni ishlatishda bir xillik, ortiqcha takrorlash, me'yoridan ortiq to‘xtamlarning mavjudligi, fikrning tugallanmaganligi, ko‘pincha xulosa va umumlashtirish qismlarining tushirib qoldirilishi kabilar. Shu bilan bir qatorda, talabalar o‘z nutqida bayonotning modal ifoda-vositalaridan deyarli foydalanishmadi, yoki uning bir xillikda ifodalanishi kuzatildi. Og‘zaki matnda stilistik yakdillikka amal qilinmadi – rasmiy va so‘zlashuv uslublari aralashganligi ham sezilarli darajada namoyon bo‘ldi. Asosiy xatoliklar mavzuga oid atamalar boyligining yetarli emasligi, bayonotning mazmunan rangdorligi, uzviylik va izchilligini ta’minlashda kuzatildi. Keyingi o‘rinda tinglab tushunish nutq faoliyatining rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida dastlabki nazorat ishlari olib borildi. Bunda maxsus tanlab olingan, ommaviy axborot vositalari namunasi sifatida “so‘nggi yangiliklar” audiomatni tanlab olindi. Xabarnoma matni B2 bilim darajasiga mos kelishi, talabalar uchun tanish leksik va grammatik

materiallarni o‘z ichiga olgan va nutq bayonoti tezligi o‘rta me’yorda bo‘lishi nazarda tutildi. Audiomatn bir marotaba eshittirildi va talabalarga ixtiyoriy ravishda kalit so‘zlar va belgi-eslatmalar yozib borishlariga imkon berildi. Tinglab tushunish ko‘nikmalarining rivojlanganlik darajasini aniqlashda ham CEFR xalqaro tizimining B2 bilim darajasida ko‘zda tutilgan kriteriyalariga asoslangan holda nazorat ishlari tashkil etildi. Bunda tahlil jarayonida quyidagi mezonlarga tayanildi:

- matnni tinglash orqali xabardagi mazmunni umumiy tushuna olish;
- matnni eshitish orqali asosiy mazmunni tushunish va aniqlash;
- tinglab tushunish orqali xabardagi ayrim iboralarni aniqlay olish;
- matnni tinglab tushunish orqali qo‘shimcha tafsilotlarni anglash.

Quyida ushbu kriteriyalar asosida talabalarning tinglab tushunish bo‘yicha dastlabki nazorat natijalarini ko‘rishimiz mumkin (3-jadvalga qarang):

3-jadval

Tinglab tushunish ko‘nikmalarini egallash darajasini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan dastlabki nazorat ishlarining natijalari

№	Mezonlar	Guruh	Soni	Rivojlanganlik darajasi							
				5		4		3		2	
				N	%	n	%	n	%	n	%
1	Asosiy mazmunni tushuntirish	Tajriba	220	71	32,3	99	45,0	41	18,6	9	4,1
		Nazorat	220	71	32,3	98	44,5	42	19,1	9	4,1
2	Umumiy mazmunni tushuntirish	Tajriba	220	70	31,8	93	42,3	44	20,0	13	5,9
		Nazorat	220	72	32,7	98	44,5	43	19,5	7	3,2
3	Xabardagi ayrim detallarni aniqlay olish	Tajriba	220	68	30,9	99	45,0	45	20,5	8	3,6
		Nazorat	220	69	31,4	101	45,9	40	18,2	10	4,5
4	Qo‘shimcha tafsilotlarni aniqlay olish	Tajriba	220	67	30,5	97	44,1	46	20,9	10	4,5
		Nazorat	220	72	32,7	99	45,0	43	19,5	6	2,7
O‘rtacha ko‘rsatkich		**Tajriba**	**220**	**69**	**31,4**	**97**	**44,1**	**44**	**20,0**	**10**	**4,5**
		Nazorat	**220**	**71**	**32,3**	**99**	**45,0**	**42**	**19,1**	**8**	**3,6**

Bunda turli mavzularga yo‘naltirilgan, muammoli vaziyat, voqealar rivoji, yangiliklar tafsilotiga bag‘ishlangan video-lavhalar (audiomatnlar) namoyish etildi. Mazkur nazorat turida ham namunalarning leksik-grammatik materiallari, murakkablik darajasi va tanish bo‘lgan tematika doirasida tanlanishiga ahamiyat qaratildi. Mazkur dastlabki nazorat ishlaridan so‘ng, keyingi bosqichlarda tajriba guruhlari uchun amaliy darslar uchun ishlab chiqilgan gapirish hamda tinglab tushunish ko‘nikmalarini kompleks ravishda rivojlantirishni ko‘zda tutuvchi mashq va vazifalar tizimi va ushbu tizim asosida “shadowing” texnologiyasi yordamida ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanmamizni tatbiq etgan holda tashkil etildi. Nazorat guruhlarida esa mavjud o‘quv materiallari asosida dars jarayonlari davom ettirildi. Tajriba hamda nazorat guruhlarida talabalarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari oraliq hamda yakuniy nazorat ishlarida imtihondan o‘kazilib, olingan natija va xulosalar qayd etib borildi. Natijalarni quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin (4-jadvalga qarang):

4-jadval

Mutaxassis talabalarning ingliz tilidagi gapirish koʻnikmalarining rivojlanganlik darajasini aniqlash yuzasidan oʻtkazilgan yakuniy nazorat ishlarining natijalari

№	Mezonlar	Guruh	Soni	Rivojlanganlik darajasi							
				5		4		3		2	
				N	%	n	%	n	%	n	%
1	Asosiy mazmunni tushuntirish	Tajriba	220	190	86,4	23	10,5	2	0,9	5	2,3
		Nazorat	220	101	45,9	78	35,5	34	15,5	7	3,2
2	Umumiy mazmunni tushuntirish	Tajriba	220	192	87,3	18	8,2	6	2,7	4	1,8
		Nazorat	220	100	45,5	76	34,5	35	15,9	9	4,1
3	Xabardagi ayrim detallarni aniqlay olish	Tajriba	220	186	84,5	25	11,4	6	2,7	3	1,4
		Nazorat	220	101	45,9	80	36,4	32	14,5	7	3,2
4	Qoʻshimcha tafsilotlarni aniqlay olish	Tajriba	220	184	83,6	22	10,0	10	4,5	4	1,8
		Nazorat	220	102	46,4	78	35,5	35	15,9	5	2,3
Oʻrtacha koʻrsatkich		**Tajriba**	**220**	**188**	**85,5**	**22**	**10,0**	**6**	**2,7**	**4**	**1,8**
		Nazorat	**220**	**101**	**45,9**	**78**	**35,5**	**34**	**15,5**	**7**	**3,2**

Tinglab tushunish koʻnikmalarining rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida ularga avvalgi tartibda audiomatn 1 marotaba qoʻyib eshittirildi. Biroq, xabarning murakkablik darajasi va grammatik-leksik tarkibiy materiallar soni va sifati jihatdan koʻlami oʻtilgan mavzular doirasida kengaytirilgan, mukammallashgan holda tatbiq etildi (5-jadvalga qarang):

5-jadval

Mutaxassis talabalarning ingliz tilidagi tinglab tushunish koʻnikmalarining rivojlanganlik darajasini aniqlash yuzasidan oʻtkazilgan yakuniy nazorat ishlarining natijalari

№	Mezonlar	Guruh	Soni	Rivojlanganlik darajasi							
				5		4		3		2	
				N	%	n	%	n	%	n	%
1	Asosiy mazmunni tushuntirish	Tajriba	189	85,9	24	10,9	2	0,9	5	2,3	189
		Nazorat	102	46,4	76	34,5	34	15,5	8	3,6	102
2	Umumiy mazmunni tushuntirish	Tajriba	191	86,8	19	8,6	6	2,7	4	1,8	191
		Nazorat	101	45,9	74	33,6	35	15,9	10	4,5	101
3	Xabardagi ayrim detallarni aniqlay olish	Tajriba	185	84,1	26	11,8	6	2,7	3	1,4	185
		Nazorat	102	46,4	78	35,5	32	14,5	8	3,6	102
4	Qoʻshimcha tafsilotlarni aniqlay olish	Tajriba	183	83,2	23	10,5	10	4,5	4	1,8	183
		Nazorat	103	46,8	76	34,5	35	15,9	6	2,7	103
Oʻrtacha koʻrsatkich		**Tajriba**	**220**	**187**	**85,0**	**23**	**10,5**	**6**	**2,7**	**4**	**1,8**
		Nazorat	**220**	**102**	**46,4**	**76**	**34,5**	**34**	**15,5**	**8**	**3,6**

Ushbu miqdoriy koʻrsatkichlar ogʻzaki nutqni rivojlantirishda gapirish hamda tinglab tushunish koʻnikmalarini kompleks ravishda “shadowing” ta’lim texnologiyasi asosida takomillashtiruvchi mashq va vazifalar tizimi samaradorlik jihatidan yuqori natijalar koʻrsatganligidan dalolat beradi. Tahlil natijalarini gapirish va tinglab tushunish kesimida umumlashtirgan holda, oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining oʻzlashtirish koʻrsatkichlarini yuqori, oʻrta, qoniqarli va

qoniqarsiz tarzida quyidagi jadval orqali ifodalashga harakat qilamiz (6-jadvalga qarang):

6-jadval

Gapirish nutq faoliyati bo‘yicha tajriba boshi va yakunidagi eksperimental ishlarning qiyosiy tahlili

Baholash ko‘rsatkichlari	Dastlabki nazorat				Yakuniy nazorat			
	Tajriba		Nazorat		Tajriba		Nazorat	
	n	%	N	%	n	%	n	%
A’lo	68	30,9	73	33,2	188	85,5	101	45,9
O‘rta	99	45,0	98	44,5	22	10,0	78	35,5
Qoniqarli	42	19,1	40	18,2	6	2,7	34	15,5
Qoniqarsiz	11	5,0	9	4,1	4	1,8	7	3,2

6-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, tajriba boshida har ikki guruhda ham ko‘rsatkichlar deyarli bir xil bo‘lgan. Yakuniy nazorat natijalariga ko‘ra, tajriba guruhida “A’lo” baho olgan talabalar soni yaxshi o‘sish bo‘lgan. Tajriba guruhida "A’lo" ko‘rsatkichi 30,9% dan 85,5% ga ko‘tarilgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu o‘sish atigi 33,2% dan 45,9% ni tashkil etgan. Tajriba guruhidagi "Qoniqarsiz" baholar soni 5,0% dan 1,8% ga tushgan, bu esa “shadowing” texnologiyasining hatto o‘zlashtirishi past bo‘lgan talabalarda ham og‘zaki nutq kompetensiyasini shakllantira olishini ko‘rsatgan. Bu o‘sishning asosiy sababi B2 va C1 darajalari bo‘yicha alohida kategoriyalashtirilgan, mantiqiy-tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan “Shadowing” mashqlari tizimi ekanligi ko‘rsatmoqda. Tahlil natijalarini tinglab tushunish kesimida umumlashtirgan holda, oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yuqori, o‘rta, qoniqarli va qoniqarsiz tarzida quyidagi jadval orqali ifodalashga harakat qilamiz (7-jadvalga qarang):

7-jadval

Tinglab tushunish bo‘yicha tajriba boshi va yakunidagi eksperimental ishlarning qiyosiy tahlili

Baholash ko‘rsatkichlari	Dastlabki nazorat				Yakuniy nazorat			
	Tajriba		Nazorat		Tajriba		Nazorat	
	n	%	N	%	n	%	n	%
A’lo	69	31,4	71	32,3	187	85,0	102	46,4
O‘rta	97	44,1	99	45,0	23	10,5	76	34,5
Qoniqarli	44	20,0	42	19,1	6	2,7	34	15,5
Qoniqarsiz	10	4,5	8	3,6	4	1,8	8	3,6

7-jadvalda tinglab tushunish ko‘nikmasining rivojlanish darajasi aks etgan bo‘lib, bu yerda ham tajriba guruhiga nisbatan ustunlik ko‘rish mumkin. Tajriba guruhida "A’lo" baholanganlar koeffitsiyenti 31,4% dan 85,0% ga yetgan. Taqqoslash uchun, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 32,3% dan 46,4% ga o‘zgarib, o‘sish sur’ati sezilarli darajada past bo‘lgan. Tinglab tushunishdagi yuqori natija video-lavhalar va vizual vositalardan foydalanib o‘tkazilgan “Shadowing” mashqlari bilan bog‘liq. Vizual ma’lumotlar (grafika, diagrammalar) audial axborotni qabul qilishni osonlashtirgan. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, “Shadowing” texnologiyasi orqali tinglab tushunishning rivojlanishi bevosita gapirish ko‘nikmasining ravonligiga (fluency) xizmat qiladi. Tahlil natijalarini gapirish va


tinglab tushunish kesimida umumlashtirgan holda, tajriba va nazorat guruhlari o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlilini ko‘ramiz (8-jadvalga qarang):

8-jadval

Tajriba va nazorat guruhlari o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining qiyosiy jadvali

Ko‘nikma turi	Guruh	Dastlabki nazorat (A’lo, %)	Yakuniy nazorat (A’lo, %)	Sifat o‘sishi (Farq, %)
Gapirish ko‘nikmasi	Tajriba	30,9%	85,5%	**+54,6%**
	Nazorat	33,2%	45,9%	+12,7%
Tinglab tushunish	Tajriba	31,4%	85,0%	**+53,6%**
	Nazorat	32,3%	46,4%	+14,1%

8-jadval ma’lumotlari tahlil qilib, quyidagilarga kelish mumkin. Tajriba guruhida gapirish ko‘nikmasi bo‘yicha sifat ko‘rsatkichi 30,9% dan 85,5% ga , tinglab tushunish bo‘yicha esa 31,4% dan 85,0% ga ko‘tarildi. Bu natijalar tajriba guruhida o‘sish sur’ati mos ravishda +54,6% va +53,6% ni tashkil etganidan dalolat beradi. Nazorat guruhida esa o‘sish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada past bo‘lib, gapirishda +12,7% (33,2% dan 45,9% ga) va tinglab tushunishda +14,1% (32,3% dan 46,4% ga) ni tashkil etgan. Demak, natijalardan xulosa qilgan holda, tinglab tushunishda o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 13,0% foizga, gapirish ko‘nikmalari rivojlanish dinamikasida sifat ko‘rsatkichi 13,0% foizga oshganligini ko‘ramiz. Bunda umumiy o‘rtacha o‘sish ko‘rsatkichi (13,0+13,0) : 2 = 13,0 tarzida namoyon bo‘ladi. Tajriba natijasida talabalarni ingliz tilida og‘zaki nutq kompetensiyasi rivojlantirish ko‘rsatkichlari hamda o‘tkazilayotgan mashg‘ulotlar asosida tilni o‘zlashtirish va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari o‘rtacha 13% ni tashkil etishi aniqlandi (4-rasmga qarang):



4-rasm. Shadowing ta’lim texnologiyasidan foydalanishning samaradorligi

Olib borilgan tajriba-sinov natijalarining matematik-statistik tahlili taklif etilgan mazkur tizimning yuqori samaradorlik darajasini tasdiqlaydi. Tadqiqot ishlari yakunida talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini egallash darajasi, ya’ni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari 13% ga oshganligi fikrimizni dalillaydi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot ishida OTT ingliz tili yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishda og‘zaki nutq kompetensiyasini ya’ni tinglab tushunish va gapirish nutq faoliyatlarini zamonaviy ta’lim texnologiyalari va interaktiv faoliyatlar asosida rivojlantirishni takomillashtirish, mazkur jarayonda og‘zaki muloqot kompeten–siyasini rivojlantirishda “shadowing” ta’lim texnologiyasidan foydalanish, mazkur

yo‘nalishdagi mavjud masala va muammolarni aniqlash hamda ularga yechim topish orqali, ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha izlanishlar olib borildi. Olingan natijalar tahlili quyidagi xulosalarni ilgari surishimizga asos bo‘lib xizmat qildi:

1. Hozirgi globallashuv jarayonida ingliz tili xalqaro aloqa, ilm-fan, texnologiya va ta’lim sohalarida asosiy vositaga aylangan bo‘lib, ayniqsa og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Shadowing” texnologiyasidan foydalanish orqali talabalarning nutq faoliyatidagi tipik va takroriy xatolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan samarali strategiyalar ishlab chiqildi. Natijada, talaffuz, intonatsiya, so‘zlashuv tezligi va mantiqiy izchillikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus mashq va topshiriqlar tizimi yaratildi hamda og‘zaki nutqni avtomatlashtirish va erkin ifoda etish ko‘nikmalari shakllantirildi.

2. Og‘zaki nutq kompetensiyasining rivojlanishida lingvodidaktik yondashuvlarning ta’siri asosida, til o‘rganish jarayonida kommunikativ metodlarga asoslangan ta’lim jarayonini tashkil etish o‘zlashtirish samaradorligini oshirishi amaliyotda o‘z tasdig‘ini topmoqda. O‘z navbatida, psixolingvistik tamoyillar ham chet tilini o‘zlashtirishda shaxsning nutqiy va kognitiv qobiliyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Til o‘rganish jarayonda nafaqat lingvistik bilimlarni, balki talabaningning idrok qilish, xotira va tezkor fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ta’lim samaradorligi oshadi.

3.Tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda “shadowing” ta’lim texnologiyasidan foydalanish jarayonini tahlil qilishda, “rolli o‘yinlari, debatlar, autentik suhbatlarni tinglash va qayta ishlab chiqish” kabi usullar yuqori samarali ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, “shadowing” ta’lim texnologiyasi orqali talabalarning talaffuz, intonatsiya va leksik boyligini oshirish, ularning chet tilida ravon muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish mumkinligi asoslab berildi. Shu bilan birga, muloqot jarayonida ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri, masofaviy vositalar (Telegram, Instagram, TikTok, Facebook) orqali joriy etish orqali talabalarning nutq ko‘nikmalarini oshirish va chet tilidagi nutqiy kompetensiyaga raqamli texnologiyalar orqali erishish imkoniyatlari o‘rganildi.

4. O‘tkazilgan amaliy tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, masofaviy texnik vositalar va ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, Facebook, YouTube) hamda til o‘rganish ilovalari (Duolingo, HelloTalk, Google Assistant) bilan integratsiyalash talabalar nutq faolligini oshirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu yondashuv talabalarda mavjud og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish va avtomatlashtirishga xizmat qildi va bu jarayon ularning mustaqil o‘rganish motivatsiyasini ham sezilarli darajada kuchaytirgan.

5. “Shadowing” texnologiyasining interaktiv va jonli yondashuv asosida qo‘llanilishi ingliz tilidagi og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda samarali va innovatsion yechim ekanligi ilmiy jihatdan isbotlandi. Ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda og‘zaki nutq kompetensiyasini shadowing texnologiyasi asosida rivojlantirishning metodik mexanizmlari ishlab chiqildi va ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish orqali ta’lim jarayoni optimallashtirildi.

6. “Shadowing” texnologiyasi ingliz tilidagi og‘zaki nutqni rivojlantirishda, ayniqsa, talabalardagi ta`lim motivatsiyasini oshirishda va til o‘rganishga ijobiy munosabatni shakllantirishda o‘z ahamiyatini ko‘rsatdi. Bu metod, shuningdek,

muloqotga yo‘naltirilgan vaziyatlarda tilni samarali o‘rgatish imkoniyatini beradi. “Shadowing” texnologiyasini O‘zbekiston ta’lim tizimida keng joriy qilinishi talabalar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va ularni xalqaro talablarga mos ravishda tayyorlash imkonini beradi.

7. Ingliz tili yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida yuzaga keluvchi muammo va qiyinchiliklarni batafsil tahlil etish orqali masalaning lingvistik, pedagogik va metodik guruhlari ajratilgan hamda ularni bartaraf etishning imkoniyat va yo‘riqlari taklif etilgan. Mazkur jihatlar negizida xorijiy til o‘qituvchilari uchun jarayonni samarali tashkil etish bo‘yicha 4 bosqichli “psixologik tayyorgarlik, lingvistik bazani mustahkamlash, metodik mashqlar orqali nutqni rivojlantirish va talabaning faol ishtirokiga asoslangan erkin muloqotni shakllantirish” metodik tavsiyalar takomillashtirilgan. Natijada ta’lim unumdorligi sezilarli darajada oshgan.

8. Taklif etilgan mashq va vazifalar tizimida an’anaviy vositalardan farqli ravishda internet, YouTube va ijtimoiy tarmoq vositalarining auditiv va audio-vizual namunalari (podkastlar, qisqa metrajli va xujjatli filmlar, video-lavhalar, so‘nggi yangiliklar)ni dars jarayoniga tatbiq etish, nafaqat og‘zaki nutqni rivojlantirish, balki talabalarning savodxonligini oshirishda, ularning turli voqea-hodisalarga nisbatan mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirishga hissa qo‘shadi.

9. “Shadowing” ta’lim texnologiyasining interaktiv yondashuvini yaratish – bu tinglash, tushunish va nutqni takrorlash jarayonini birgalikda amalga oshirishni anglatadi, bu esa talabalarda tailored approaches ya’ni shaxsiylashtirilgan yondashuv va interaktiv elementlar bilan birgalikda til o‘rgatish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishda yordam beradi.

10. Ishlab chiqilgan “og‘zaki nutqni rivojlantirishda gapirish hamda tinglab tushunish ko‘nikmalarini kompleks ravishda takomillashtiruvchi mashq va vazifalar tizimi”ni tajriba-sinov ishlaridan o‘tkazish natijasida mazkur tizim nafaqat ingliz tili yo‘nalishi talabalarining ham tinglab tushunish va gapirish nutq faoliyatini kompleks rivojlantirishda hamda xorijiy til ta'limi jarayonini intensifikasiya qilishda samarali ekanligi tasdiqlandi. Demak, har bir filologik ta’lim yo‘nalishlari uchun o‘quv-fan dasturlari va adabiyotlarni ishlab chiqish, shuningdek, o‘quv-ta’lim mazmunida “tinglab- tushunish va gapirishni o‘zaro kompleks rivojlantirish” bo‘yicha ko‘rsatma, tavsiya va topshiriqlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

TAVSIYALAR

Ushbu tadqiqot ishida OTT ingliz tili yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini (tinglab tushunish va gapirish) zamonaviy ta’lim texnologiyalari va interaktiv yondashuvlar asosida rivojlantirish masalasi o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida og‘zaki muloqot kompetensiyasini takomillashtirishda “shadowing” ta’lim texnologiyasidan samarali foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Olingan natijalar tahlili esa tegishli ilmiy tavsiyalarni shakllantirishga asos bo‘ldi.

1. “Shadowing” texnologiyasini tizimli va muntazam qo‘llash - shadowing usulini dars jarayoniga tizimli ravishda joriy etish chet tilini o‘rganishda muhim

metodik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shadowing mashqlarini haftasiga kamida 2–3 marotaba bajarish talabalar nutq apparatini faol ishlashga undaydi hamda fonetik kompetensiyaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu texnologiya orqali talabalar eshitilayotgan nutqni real vaqt rejimida takrorlash orqali talaffuz, urg‘u, intonatsiya va nutq ritmini tabiiy ravishda o‘zlashtiradilar. Natijada, eshitib tushunish (listening comprehension) hamda og‘zaki nutq malakalari parallel ravishda rivojlanadi.

2. Mashqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish tamoyili - shadowing mashqlarini tashkil etishda didaktik tamoyillardan biri bo‘lgan soddadan murakkabga o‘tish prinsipiga amal qilish zarur. Dastlab talabalar uchun qisqa, aniq talaffuz qilingan va sekin tempdagi audio matnlar tanlanadi. Bu bosqichda asosiy e’tibor tovushlar, so‘z urg‘usi va intonatsiyaga qaratiladi. Keyingi bosqichlarda esa tabiiy tezlikda aytilgan dialoglar, monologlar va autentik nutq namunalariga o‘tiladi. Mazkur yondashuv talabalarni psixologik jihatdan qiynamasdan, ularning lingvistik moslashuvini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi.

3. Individual, juftlik va kichik guruhlarda mashq qilish – “shadowing” mashqlarini faqat individual shaklda emas, balki juftlik va kichik guruhlar asosida tashkil etish talabalar o‘rtasida kommunikativ faollikni oshiradi. Individual mashqlar talabaning shaxsiy kamchiliklarini aniqlashga yordam bersa, juftlik va guruhli mashqlar o‘zaro tinglash, baholash va fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu orqali talabalar o‘z nutqini boshqalarning nutqi bilan taqqoslab, xatolarini anglash va tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

4. Autentik materiallardan foydalanishning ilmiy ahamiyati – “shadowing” jarayonida autentik materiallardan foydalanish real til muhitini yaratishning eng samarali usullaridan biridir. “BBC Learning English”, “VOA Learning English”, “TED Talks” hamda “YouTube”dagi ta’limiy kanallar orqali taqdim etilgan materiallar tabiiy nutq namunalarini o‘z ichiga oladi. Bunday manbalar yordamida talabalar turli aksentlar, nutq uslublari va madaniy kontekstlar bilan tanishadilar. Bu esa ularning sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Mobil ilovalarni shadowing mashqlariga integratsiya qilish - zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish “shadowing” mashqlarining samaradorligini yanada oshiradi. “ELSA Speak”, “Speechling”, “YouGlish” va “HelloTalk” kabi mobil ilovalar talabalar uchun mustaqil mashq qilish imkonini yaratadi. Ushbu ilovalar yordamida foydalanuvchilar o‘z talaffuzini avtomatik baholash, real nutq namunalarini eshitish va tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Natijada, darsdan tashqari mustaqil ta’lim jarayoni ham samarali tashkil etiladi.

6. Audio-analiz vositalaridan foydalanish orqali fonetik tahlil - talabalar nutqini chuqur tahlil qilish maqsadida “Praat” yoki “Audacity” kabi audio-analiz dasturlaridan foydalanish ilmiy jihatdan asoslangan yondashuv hisoblanadi. Ushbu dasturlar yordamida talaffuzdagi fonetik xatolar, intonatsiya va tovush cho‘zilishi kabi jihatlar vizual tarzda tahlil qilinadi. Bu esa talabaga o‘z nutqidagi kamchiliklarni aniq ko‘rish va ularni ongli ravishda tuzatish imkonini beradi.

7. Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash jarayonini tashkil etish – “shadowing” mashqlaridan so‘ng refleksiya jarayonini yo‘lga qo‘yish talabalar metakognitiv

kompetensiyasini rivojlantiradi. Talabalar o‘z yozib olingan nutqlarini qayta tinglab, kuchli va zaif tomonlarini mustaqil baholaydilar. O‘z-o‘zini tahlil qilish orqali ular shaxsiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqadilar hamda mas’uliyatli o‘rganishga odatlanadilar.

8. Motivatsiyani oshirish — shadowing jarayonida o‘yinli yondashuvlar (gamification), audio tanlovlar yoki “best imitation” musobaqalari o‘tkazish samaradorlikni oshiradi. Shu sababli “shadowing” mashg‘ulotlarini tashkil etishda motivatsion elementlar qisqa muddatli qiziqish uyg‘otuvchi vosita sifatida emas, balki talabaning muntazam nutqiy mashq qilish odatini shakllantiruvchi didaktik mexanizm sifatida qo‘llanishi muhimdir. Mazkur yondashuv “shadowing” texnologiyasining motivatsion komponentini kuchaytirib, talaffuz, ravonlik, intonatsiya va prosodik ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan bir qatorda talabalarning ta’lim jarayonidagi barqaror ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

БОЛБЕКОВА УГИЛОЙ ЖАЛОЛИДДИНОВНА

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ «SHADOWING» В РАЗВИТИИ УСТНОЙ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (английский язык)

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ПЕДАГОГИЧЕСКИМ наукам

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2023.4.PhD/Ped6327 в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Норматова Нуржамол Норматовна** доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент
Официальные оппоненты:	**Хашимова Дилдора Уринбаевна** доктор педагогических наук, профессор
	Давронова Фотима Пирназаровна доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Ведущая организация:	**Национальный педагогический университет Узбекистана**

Защита диссертации состоится «17» ноября 2026 года в 9:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140100, Узбекистан, г. Самарканд, ул. Гагарина, 43. Тел: (99866) 234-29-36; e–mail: info.samdchti.uz.

С докторской диссертацией можно ознакомится в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за №66785 Адрес: 140100, г. Самарканд, ул. Гагарина, 43. Тел: (99866) 234-29-36.

Автореферат диссертации разослан «_____» ноября 2026 года.
(Реестр протокола рассылки №16 от «_____» ноября 2026 года)

У.У. Жуманазаров
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук (DSc), профессор

А.Э. Рустамова
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук (DSc), доцент

А.Я. Нурмуратов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук (PhD), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой практике использование образовательной технологии «Shadowing» в развитии устноречевой компетенции студентов направления английского языка, совершенствование произношения, беглости речи, аудирования и коммуникативных навыков на основе аутентичных аудио- и видеоматериалов признаются одними из приоритетных направлений методики преподавания иностранных языков. Однако недостаточная разработанность методических основ применения технологии «Shadowing» с учётом индивидуального уровня владения языком, образовательных потребностей и речевых особенностей студентов, а также механизмов комплексной оценки её влияния на устноречевую компетенцию ограничивает эффективность образовательного процесса. В связи с этим разработка и внедрение в практику дидактической модели, методического обеспечения и диагностико-оценочных механизмов применения образовательной технологии «Shadowing» в развитии устноречевой компетенции студентов направления английского языка является актуальной практической задачей.

В последние годы в мировой научной практике проводятся масштабные исследования, направленные на развитие устноречевой компетенции студентов направления английского языка на основе образовательной технологии «Shadowing», интеграцию в образовательный процесс средств искусственного интеллекта, технологий автоматического распознавания речи (Automatic Speech Recognition), аутентичных аудио- и видеоматериалов, мобильных образовательных приложений и цифровых языковых платформ. В данном направлении приоритетными областями научных исследований являются повышение точности произношения, развитие беглости речи (fluency), навыков аудирования, просодических навыков, коммуникативной компетенции, а также формирование индивидуальных образовательных траекторий. Перспективными и актуальными являются исследования, направленные на создание адаптивных систем «Shadowing» на основе генеративного искусственного интеллекта, развитие устноречевой компетенции в виртуальной и иммерсивной среде (VR/AR), мониторинг индивидуального речевого развития на основе учебной аналитики (Learning Analytics), а также оценку долгосрочной эффективности технологии «Shadowing».

В Узбекистане осуществляются системные реформы, направленные на развитие устноречевой компетенции студентов направления английского языка, широкое внедрение инновационных педагогических технологий, цифровых образовательных средств и возможностей искусственного интеллекта в процесс обучения иностранным языкам. Как отметил Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев: «Сегодня человечество уверенно вступает в эпоху новой цивилизации — эпоху искусственного интеллекта. В какой бы сфере ни было, тот, кто первым проявит решительность и

последовательность и достигнет конкретных результатов, будет впереди всех»[1]. В этой связи актуальное значение приобретают исследования, направленные на развитие устноречевой компетенции студентов направления английского языка на основе образовательной технологии «Shadowing», разработку методики эффективного использования аутентичных аудио- и видеоматериалов и средств искусственного интеллекта, а также их интеграцию в образовательный процесс.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в Законе Республики Узбекистан № ЗРУ-576 от 29 октября 2019 года «О науке и научной деятельности», Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», № УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», № УП-165 от 6 июля 2022 года «Об утверждении Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022–2026 годы», Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», № ПП-4306 от 3 мая 2019 года «О мерах по организации непрерывной системы выявления одарённой молодёжи и подготовки высококвалифицированных кадров», а также в других нормативно-правовых документах, регулирующих данную сферу.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Научно-исследовательская работа проводилась в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социально-правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Научные труды следующих ученых посвящены изучению вопросов, связанных с методикой преподавания языков в Узбекистане: Дж. Дж. Джалолов, Г.Х.Бакиева, М.Джусупов, Л.Т.Ахмедова, М.Т.Ирискулов, Д.У.Хашимова, И.М.Тухтасинов, Г.Н.Ирмухамедова, Г.Т.Махкамова, У.У.Джуманазаров, А.Е.Рустамова, А.Я.Нурмуратов[6] и другие.

[6] Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. –T.: O‘qituvchi, 2012; Бакиева Г.Х. (2012). Узбекский язык для стран СНГ. Москва: МГЛУ. – 120 с; Джусупов М. (2009). Лингводидактика и методика в полинаучной системе языкового образования. Москва: Русский язык за рубежом. – 230 с; Аҳмедова Л.Т. (2012). Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов филологов: дисс. док. пед. наук. Ташкент. – 320 с; Iriskulov M.T Tilshunoslikka kirish Darslik «Yoshlar matbuoti» Toshkent. 2009. 263 b; Xashimova D.U. Lingvodidakticheskie osnovi izucheniya lakun v kontekste sovremennogo funksionirovaniya russkogo yazika i mejyazikovoy vzaimodeystviy: dis.dok.ped.nauk. –T., 2007. – 209 s.; Tuxtasinov, I.M. (2018) “Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish” Toshkent. Ped. fan. dok diss. (DSc).–T., 2018. – 203 s.; Ирмухаммедова Г.Н. Лингводидактические основы обучения критическому чтению аутентичных текстов. (на старших курсах

Проблемам развития устной речи на английском языке посвящены исследования таких учёных, как Т.К.Сатторов и Г.И.Тоирова, У.К.Носирова, З.В.Ашурова, Н.Н.Норматова, П.Х.Омонов, Ж.А.Кенджабаев[7].

Проблема развития устной речевой компетенции в странах Содружества Независимых Государств широко изучалась российскими и зарубежными учеными. В частности, теория речевой деятельности, коммуникативный подход и психолингвистические основы обучения языку разработаны такими учеными, как Л.В. Щерба, А.А. Леонтьев, Л.С. Выготский, Н.И.Жинкин, Р.Р. Мильруд, Е.И. Пассов, И.Л.Бим, В.В.Сафонова, В.И.Андриянова, Н.Н.Гладышева[8]. Эти исследователи провели научный анализ лингвистических и психолингвистических характеристик устной речи, этапов восприятия информации (аудитивный процесс) и ее обработки и передачи (говорение).

Проекты и научные исследования по использованию технологии «shadowing» широко осуществляются за рубежом. В частности, ряд научных исследований по применению технологии «shadowing» в процессе обучения английскому языку проведен в Японии, Южной Корее, Китае и США. В этих исследованиях научно обоснована эффективность данной технологии, особенно в развитии навыков аудирования и говорения. Среди исследователей, которые использовали метод «shadowing» в методике

экономических вузов): дис.кан.пед.наук. –Т., 2008. –208 с.; Махкамова Г.Т. Идея прогрессивизма в обучении языку специальности: илмий-амалий конф. материал. –Т., 2009. –150 с.; Jumanazarov U.U. Ta'limni raqamlashtirish muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish ped. fan. dok. avtoreferati (DSc) . Jizzax-2021. 89 s.; A.E.Rustamova Oliy ta'lim muassasalarida chet tilini pedagogik diagnostika metodikasi orqali o'qitishni takomillashtirish konsepsiyasi (ingliz tili misolida) ped. fan. dok. avtoreferati (DSc)-Toshkent-2025. 64 s.; A.Y.Nurmuratov Masofaviy ta'limda ingliz tilini o'qitish metodikasi: ped. fan. fal. dok. (PhD) avtoref. – Toshkent, 2024. – 63 s.

